



## SEMINAR MASHG'ULOTLARIDA MAKTABGACHA TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINI KREATIV FIKRLASHGA O'RGATISH TEXNOLOGIYASI

*Abdurashidov A.A.*

*Qo`qon davlat pedagogika instituti v.b.professori*

**Tayanch so`zlar:** kreativlik, kreativ fikrlash, seminar, FSMU, boshqaruv, klaster, esse.

**Ключевые слова:** креативность, творческое мышление, семинар, ФСМУ, менеджмент, кластер, эссе.

**Key words:** creativity, creative thinking, seminar, FSMU, management, cluster, essay.

**Резюме:**

Mazkur maqolada, maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini kreativ fikrlashga o'rgatishda seminar mashg'ulotlaridan foydalanish texnologiyasi berilgan.

**Резюме:**

В данной статье дана технология использования семинарских занятий в обучении дошкольников творческому мышлению.

**Summary:**

This article describes the technology for using seminar classes in teaching preschoolers creative thinking.

Kreativlik – so‘zi inglizcha «create» so‘zidan olingan bo‘lib, yaratish degan ma‘noni anglatib, talabani noodatiy fikr yuritish, yangi g‘oyalarni o‘ylab topish, yangilikni ixtiro qilish, an‘anaviylikdan voz kechib, odatiy fikr yuritishdan tashqariga chiqishga undaydi. Zero kreativlikning negizi originallik, amaliylik, noodatiylik va erkinlikka borib taqaladi.

Kreativ fikrlash - bu qimmatli va asl g'oyalarni yaratishga olib keladigan fikrlash yo'nalishidir. Barcha insonlar ijodiy fikrlash hamda «kundalik» ijodkorlik, ya'ni kundalik muammolarga nostandart tarzda yechim topish bilan shug'ullanishlari mumkin. Zotan, bugungi davr talabalardan aynan kreativ bo'lishni talab etmoqda. «Kreativ fikrlaydigan yoshlar», «Kreativlik kerak», «Kreativ yondashuv» kabi jumlar bugungi kunning faol tushunchalariga aylanib qoldi. Ayniqsa «kreativlik» talabi talabaga nisbatan ko'proq ishlatilmoqda. Zamon talabidan kelib chiqib biz oliy ta'lim tizimi professor-



o`qituvchilari ham talabalarni kreativ fikrlashlarini rag`batlantirgan holda o`quv jarayoning barcha turlari: ma`ruza, amaliy, seminar mashg`ulotlarini turli shakllarda tashkil etib kelmoqdamiz. Masalan, maktabgacha ta`limiy o`nalishi talabalarini kreativ fikrlashda quyidagi seminar mashg`ulotini tashkil etib talabalarining ishtiroki va kreativ fikrlarini bildirish imkoniyati yaratilganligiga erishdik.

O`z tajribamizni siz bilan bo`lishish maqsadida quyidagi seminar mashg`ulotini tavsiya etmoqchimiz:

2-seminar mashg`ulot mavzusi:

**O`zbekiston Respublikasida maktabgacha ta`lim tashkilotlari. Maktabgacha ta`lim tashkilotini boshqarish va uning faoliyatini tashkil etish.**

**Seminar mashg`ulotining maqsadi:** Egallangan nazariy bilimlarni mustahkamlash

**Reja:**

1. Maktabgacha ta`lim tashkilotlari. Maktabgacha ta`lim tashkilotlari pedagog-xodimlarining kasbi
2. Boshqaruv tushunchasi va uning mazmun-mohiyati
3. Maktabgacha ta`limning boshqarish tizimi
4. Maktabgacha ta`lim tashkilotining rahbari va uning faoliyati

**1-topshiriq.** “FSMU” texnologiyasi asosida bajaring


Savol	Maktabgacha ta`lim tashkilotlari
F-Fikringizni bayon eting.	
S-Fikringiz bayoniga sabab ko`rsating	
M-ko`rsatilgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring.	
U-Fikringizni umumlashtiring.	

**2-topshiriq.** “FSMU” texnologiyasi asosida bajaring

Savol	Maktabgacha ta`lim tashkilotlari pedagog xodimlarining kasbi
F-Fikringizni bayon eting.	
S-Fikringiz bayoniga sabab ko`rsating	
M-ko`rsatilgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring.	
U-Fikringizni umumlashtiring.	



**3-topshiriq.** Boshqaruv tushunchasini klaster chizmasi asosida izohlab bering.



**4-topshiriq.** Maktabgacha ta'limni boshqarish tizimi.

Savol	Maktabgacha ta'limni boshqarish tizimi.
F-Fikringizni bayon eting.	
S-Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
M-ko'rsatilgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring.	
U-Fikringizni umumlashtriring.	

**5-topshiriq.** Esse yozing.

“Men maktabgacha ta'lim tashkilotining rahbari bo'lsam.... Jumlasini bo'yan boshlanadigan esse yozing

**6-topshiriq** savollarga javob bering:

1. Boshqaruv tushunchasi va uning mazmun-mohiyatini qanday izohlaysiz
2. Maktabgacha ta'limni boshqarish tizimi haqida nimalarni ayta olasiz?
3. Maktabgacha ta'lim tashkilotining rahbari va uning faoliyati deganda nimani tushunasiz?

**7-topshiriq.** Testlarni yeching.

1. O'zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida”gi qonunning 15-moddasida maktabgacha ta'lim va tarbiyaning nechta tizimi belgilangan?

- A. 4 ta
- B. 1 ta
- C. 3 ta
- D. 5 ta

2. “Maktabgacha ta'lim tashkiloti davlat va nodavlat tashkiloti bo'lishi mumkin”ligi O'zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida”gi qonunning nechanchi moddasida aks ettirilgan?

- A. 16
- B. 10



- C. 9
- D. 25

3. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining turlari O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonunning nechanchi moddasida aks ettirilgan?

- A. 17
- B. 10
- C. 9
- D. 25

4. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonunning 19-moddasida qanday fikrlar aks etgan?

- A. nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish
- B. davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish
- C. shaxsiy maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish
- D. jismoniy maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish

5. Jismoniy shaxslar qachon maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida ta'lim xizmatlarini ko'rsatishga haqli?

A. Yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tib, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligini belgilangan tartibda xabardor qilganidan keyin

B. Yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tib, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligini belgilangan tartibda xabardor qilganidan keyin

C. Yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tib, O'zbekiston Respublikasi Maktab ta'lim vazirligini belgilangan tartibda xabardor qilganidan keyin

D. Yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tib, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligini belgilangan tartibda xabardor qilganidan keyin

6. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining davlat akkreditatsiyasi qanday amalga oshiriladi?

- A. Davlat inspeksiyasi tomonidan attestatsiya asosida
- B. Davlat xizmatlari tomonidan attestatsiya asosida
- C. Yagona darcha tomonidan attestatsiya asosida
- D. Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan attestatsiya asosida

7. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining davlat akkreditatsiyasi necha yilda necha marta amalga oshiriladi?

- A. besh, bir



- B. uch, bir
- C. har yili bir
- D. besh, ikki

8. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining davlat akkreditatsiyasini amalga oshirish tartibi kim tomonidan belgilanadi?

- A. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
- B. O'zbekiston Respublikasi Olit ta'lim Vazirligi
- C. O'zbekiston Respublikasi Innovatsion Vazirligi
- D. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim Vazirligi

9. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquq va majburiyatlari O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonunining nechanch moddasida aks ettirilgan?

- A. 39
- B. 60
- C. 50
- D. 10

10. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlari: bolalarga qanday darajada ta'lim va tarbiya berishlari kerak?

- A. professional
- B. ilmiy
- C. yuqori
- D. to'lqonli

**8-topshiriq.** Adabiyotlarni o'rganing:

1. "Ilk qadam" O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun davlat o'quv dasturi /takomillashtirilgan ikkinchi nashr/ 2022 yil

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda 802-son qaroriga Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning DAVLAT STANDARTI

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M Mirziyoyev tomonidan 2019-yil 20-martda "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5 ta muhim tashabbus

4. Maktabgacha ta'lim muassasalarida qisqa muddatli guruhlar faoliyatini tashkil etishda tarbiyachilarni tayyorlash bo'yicha trening moduli. T.: 2017-y.

5. "Bolangiz maktabga tayyormi?" O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi Respublika ta'lim markazi, Ma'rifat-Madadkor nashriyoti.

Xulosa qilib aytganda, seminar mashg'uloti uchun tanlab olingan barcha ish turlari "FSMU", "Esse", "Klaster" usullari talabalarni kreativ fikrlashga undaydigan interfaol metodlar bo'lib, har bir talabani ijodiy va mustaqil fikrlarini bayon etish imkonini beradi, talabalar fikrlari o'zaro tahlil qilinib,



eng ilg`orlari rag`batlantiriladi. Talabalarda o`z fikrlarini erkin bayon etish ko`ikmasi hosil bo`ladi.

#### Adabiyotlar:

1. A. A. Ismoilov, X. J. Daminov Z. A. Kosimova G. A. Primov “Kreativ fikrlashni baholash”. Toshkent- 2021
2. Каршиева, Д. К. О`quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda xalqaro tadqiqotlarning o`rni / Д. К. Каршиева, О. Н. Усмонова. - Текст : непосредственный // Молодой ученый. - 2023. - № 2 (449). - С. 500-505. - URL: <https://moluch.ru/archive/449/98832/> (дата обращения: 29.10.2024).
3. <https://avlod.media/uz/siz-kreativ-fikrlaysizmi/>
4. Samiyeva Sh.X., Narzulloyeva F.F. Kreativ fikrlash. Darslik. Buxoro.2022 yil.